

**Gaz ta'minoti tizimini modernizatsiya va transformatsiya qilish  
bo'yicha 2021 yilda amalga oshirilayotgan  
chora-tadbirlar to'g'risida  
MA'LUMOT**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida gaz ta'minoti tizimini raqamlashtirish hamda modernizatsiya qilish dasturlariga muvofiq 2021 yilda quyidagi ustuvor chora-tadbirlar amalga oshirildi:

**Birinchi**dan, respublika iste'molchilariga jami **21,3 mlrd.kub metr** (o'sish sur'ati **106 %**) (shundan, aholiga **12,2 mlrd.kub metr**, ulgurjiga **9,1 mlrd.kub metr**) **tabiiy** hamda **590,8 ming tonna** (**113 %**) **suyultirilgan gaz** yetkazib berildi;

**Ikkinchi**dan, **267,0 km** yangi gaz tarmoqlari qurilib, foydalanishga topshirildi hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish doirasida **141 km** gaz tarmoqlari mukammal ta'mirlanib, rekonstruksiya qilindi. Shuningdek, **413 ta** gaz taqsimlash punktlari mukammal ta'mirlandi;

**Uchinchi**dan, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida **683 ta** mahallalardagi **570,7 mingta** iste'molchilar gaz ta'minoti yaxshilash maqsadida, **782,8 km** gaz tarmoqlari va **2 164 dona** gaz taqsimlash punktlari joriy ta'mirlandi hamda suyultirilgan gaz iste'molchilariga **9 139 dona** qo'shimcha maishiy gaz ballonlari yetkazib berildi;

**To'rtinchi**dan, iste'molchilarga yetkazib berilayotgan **gaz hajmini nazorat qilish va hisob-kitobini avtomatlashtirish tizimini joriy etish** loyihasi doirasida **378 mln.dollar** investitsiya mablag'lari o'zlashtirilib, **2,4 mlndan ortiq** honadonlarga **zamonaviy hisoblagichlar** o'rnatilib, gaz ta'minoti tizimi **3-bosqichlidan 2-bosqichli** tizimga o'tkazish orqali **texnologik yo'qotishlar** hajmi **3,6 mln kub metr**ga qisqartirildi.

Bundan tashqari, **90,3 ming km** gaz tarmoqlarining **elektron topografik xaritalari** shakllantirildi;

**Beshinchi**dan, **suyultirilgan gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimi** to'liq joriy etildi hamda iste'molchilarga qo'shimcha **62,2 ming dona maishiy gaz ballonlar** yetkazib berildi;

**Oltinchi**dan, suyultirilgan gaz to'ldirish inshootlariga **29 dona** zamonaviy elektron va **16 dona** magnitli sath (urovnemer) o'lchagichlar, **26 dona** nasos, **25 dona** kompressor, **14 dona** dizel generatorlar, **41 dona** gaz to'ldirish tarozi (kolonka)lar va **2 dona** sig'imlar (**5 m<sup>3</sup>**) o'rnatilib, oylik tarqatish quvvati **5,7 ming tonnaga** oshirish natijasida **moddiy-texnik bazasi modernizatsiya** qilindi hamda texnologik yo'qotishlardagi qiymati **2,9 mlrd so'mlik 2,6 ming tonna** suyultirilgan gaz iqtisod qilinib, **132 ming** aholi xonadonlariga qo'shimcha suyultirilgan gaz yetkazib berish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, **10 ta** maishiy gaz ballonlarni **ta'mirlash va sinovdan o'tkazish sexlari** qurib, foydalanishga topshirildi hamda **330,0 mingdan ziyod** gaz ballonlari sinovdan o'tkazildi;

**Yettinchidan**, gaz ta'minoti filiallari uchun jami **23 ta** avtotransport va maxsus texnikalar xarid qilinib, filiallar avtoparki sezilarli darajada yangilandi hamda **moddiy texnika bazasi yanada mustahkamlandi**.